

INNOVATION TALABALAR AXBOROTNOMASI



 <https://innoworld.net>

 +998945668868



ILMIY JURNAL



 JOURNALS
MASTER LIST

 ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
NUMBERING
SYSTEM

 doi

 zenodo

 OpenAIRE

 Academic
Resource
Index
ResearchBIB

 Google Scholar

 open access.nl

Yer osti suvlaridan samarali foydalanish**Muhamadaliyev Muhammadziyo Muhammadibrohim o'g'li**

Geologiya fanlari universiteti, Hidrogeologiya va muhandislik geologiyasi
yo'nalishi 4-bosqich talabasi

e-mail: Muhammadziyomuhammadaliyev@gmail.com

Rahimxonov Ixtiyorxon Isroilxon o'g'li

Geologiya fanlari universiteti, Geologiya-qidiruv ishlari texnikasi va
texnologiyasi yo'nalishi 4-bosqich talabasi

e-mail: rahimxonovixtiyorxon0409@gmail.com

Orifjonov Abdumavlon Elyor o'g'li

Geologiya fanlari universiteti, Hidrogeologiya va muhandislik geologiyasi
yo'nalishi 4-bosqich talabasi

e-mail: abdumavlonorifjonov142@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada qishloq xo'jaligida yer osti suvlaridan uzoq vaqt mobaynida foydalanish jarayonida yuz beradigan tabiiy o'zgarishlar, mazkur suv manbalarining tuproq va o'simliklarga ta'siri.

Kalit so'zlar: yer osti suvlari, tahlil qilish, irrigatsiya, meliorativ.

Аннотация: В статье естественные изменения, происходящие при многолетнем использовании подземных вод в сельском хозяйстве, влияние этих водных источников на почву и растения.

Ключевые слова: подземные воды, рекультивация, орошение, анализ.

Annotation: In the article, the natural changes that occur during the long-term use of groundwater in agriculture, the impact of these water sources on the soil and plants.

Key words: underground water, reclamation, irrigation, analysis.

Kirish: Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida 20 mln gektardan ortiq, shu jumladan 3,2 mln gektar sug'oriladigan ekin yer maydonlaridan foydalanib, aholining ehtiyoji uchun oziq-ovqat mahsulotlari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur xomashyolar yetishtirilmoqda.

Sug'oriladigan maydonlarning unumdorligini oshirish, meliorativ holati va suv ta'minotini yaxshilash maqsadida davlat dasturlari doirasida keng ko'lamlı irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Natijada 2008 — 2017-yillar mobaynida 1,7 mln gektardan ortiq sug'oriladigan maydonlarning suv ta'minoti hamda 2,5 mln gektar maydonlarning meliorativ holatining yaxshilanishiga erishildi.

Biroq, global iqlim o'zgarishi natijasida so'nggi yillarda davriy ravishda kuzatilayotgan suv tanqisligi va ichki irrigatsiya tarmoqlarining asosiy qismi yaroqsiz holatga kelganligi sug'oriladigan ekin yerlarining meliorativ holati yomonlashishiga va yillar davomida foydalanishdan chiqib ketishiga olib kelgan.

Respublikada yillar davomida irrigatsiya va melioratsiya holati yomonlashuvi natijasida foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni bosqichma-bosqich qayta foydalanishga kiritish, yer osti suv zaxiralaridan samarali foydalanish, suv tejavchi texnologiyalarni joriy etish hamda ichki irrigatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish orqali suv yo'qotilishini kamaytirish, shuningdek, bu ishlarda salohiyatli investorlar ishtirokini ta'minlash maqsadida quyidagilar amalga oshirilishi kerak:

1. Qishloq xo'jaligida suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasini yaratish;

2. Qishloq xo'jaligida suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha loyihalar tuzish;

3. Qishloq xo'jaligi yerlarida suv tejavchi texnologiyalarni joriy qilish;

4. Qishloq xo'jaligida suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasini amalga oshirish doirasida xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik qilish va davlat-xususiy sheriklikni joriy etish.



1-rasm. Yer osti suvlarini chiqarib olish uchun ishlatiladigan zamonaviy motorlar



**2-rasm. Qishloq xo'jaligida yerlarni sug'orish usullari.
(Tomchilab sug'orish usuli)**


Yer osti suvlari - Yer po'stining yuqori qismidagi tog' jinslari qatlamlarining g'ovak bo'shlikdarida joylashgan suyuq, qattiq (muz), bug'simon holatdagi suvlar.

Yer osti suvlari umumiy suv resurslarining bir qismi bo'lib, suv ta'minoti va sug'orish manbai sifatida xalq xo'jaligi uchun katta ahamiyatga ega. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ ahvoli grunt suvlarining holati bilan belgilanadi. Yer osti suvlarini gidrogeologiya fani o'rganadi.

Suv molekulyar kuchlar tutib turadigan bog'langan hamda og'irlik kuchi yoki bosim farqi ta'sirida harakatda bo'ladigan gravitatsion yoki erkin holatda bo'lishi mumkin. Bog'lanmagan suv bilan to'yingan tog' jinslari qatlamlari suvli gorizont deyiladi, ular suvli komplekslarni hosil qiladi.

Yer osti suvlari suv saqlovchi jinslarda tuplanish harakteriga ko'ra g'ovak (yumshoq jinslarda), dara (tomir) — qattiq jinslarda va karst (g'or) (darz-karst-yengil eriydigan karbonat va gipsli jinslarda) suvlariga bo'linadi.

Joylashish sharoitiga ko'ra Yer osti suvlari tuproq suvi (qarang Tuproq suv rezkimi), mavsumiy suvlar (yuza suvlar: aeratsiya zonasidagi suv saklovchi qatlamlar ustida yog'inlar yoki sug'orish suvlarining shimilishidan hosil bo'ladi); grunt suvlari (yer yuzasiga eng yaqin birinchi suv o'tkazmaydigan qatlam ustida to'planadi) va qatlamlararo (bosimsiz, bosimli, artezian, suv o'tkazmaydigan qatlamlar o'rtasida joylashgan suvli qatlamlar) suvlarga bo'linadi



3-rasm. Yer osti suvlarining ko'rinishi.

Yer osti suvlari daryo, ariq suvlariga nisbatan ancha sekin harakatlanadi. Yer osti suvlari tog' jinslari orasidan ko'pincha nishab tomonga qarab sizib o'tadi. Relyefning bunday joylaridan yer osti suvlari buloq yoki sizot suv tarzida chiqib turadi. Bunday suvlar Sirdaryo viloyatidagi yangi o'zlashtirilgan joylarda ko'plab uchraydi. Sizot (grunt) suvlar tog' jinslari orasidan sekin, lekin doim o'tib turadi. Ularning tezligi jinsning suv o'tkazuvchanligiga va yer osti suvini saqlovchi qatlamning qiyaligiga bog'liq.

Yer osti suvlarining harakat tezligi, ularning qanday jinslar orasidan o'tishiga bog'liqdir. Mayda qum orasidan bir sutkada 1-5 m, yirik qumda 15-20 m, shag'al yoki serdarz jinslarda 100 m va undan ham tezroq siljishi mumkin.

Artezian suvlar. Bosimli suv odatda yer qatlamlarining tektonik jarayoni natijasida qatlamlar orasida to'planadi. Bundan tashqari, artezian suvlar monoklinal va tektonik yoriqlarida ham paydo bo'ladi. Sinklinalning ikki suv o'tkazmaydigan qatlami orasidagi suv o'tkazuvchi qatlamga ko'p suv to'planishidan artezian suvi hosil bo'ladi.

Artezian suvining hosil bo'lishi uchun suv o'tkazuvchi qatlamning yer yuziga chiqqan qismi shu qatlamning yer ostidagi qismiga nisbatan balandda bo'lishi shart. Sinklinal qatlamlarda hosil bo'lgan yer osti suvini burg'i qudug'i bilan qaziganda ikkita suv o'tkazmaydigan qatlam orasidagi suv otilib chiqadi. Toshkent mineral suvi xuddi shunday sinklinal qatlamda joylashgan Bo'r davri dengiz qumi yotqiziqlari orasidan (1800-1850m chuqurlikdan) chiqmoqda.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, bugungi kunda qishloq xo'jaligida suvdan oqilona foydalanish yer sharining suv resuslarini yanada boyitishga olib keladi. Yer osti va yer usti suvlaridan unumli foydalanish orqali tuproq tarkibini yanada unumdor qilish munker, bu esa o'z navbatida qishloq xo'jaligi - dehqonchilik ishlarining rivojlanishiga olib keladi. Yer osti suvlaridan mukammal foydalaniladigan hududlarda o'simlik o'sishi va unga kerakli bo'lgan mineral moddalarni suv bilan berishni muntazam yo'lga qo'yish kerak. Yer usti suvlaridan foydalaniladigan hududlarda suvning

tarkibini aniqlash, ularni yillar davomida tahlil qilib turishi kerak. Chunki suvning tarkibida dengiz va daryo suvlari o'zi bilan birga turli takribdagi tuz va boshqa mineral moddalarni oqizib kelinayotganiga bog'liq. Bu esa qishloq xo'jaligi ekinlari uchun juda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017yil 4 maydagi "2017-2021-yillarda yer osti suvlari zaxiralaridan oqilona foydalanishni nazorat qilish va hisobga olishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-2954-son qarori.
2. Axmadaliyev YO'. I (2014). Yer resuslaridan foydalanish geologiyasi.



INNOVATIVE
WORLD